

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY QONUNI

## FAVQULODDA HOLAT TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-iyulda  
qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda  
ma'qullangan

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning maqsadi

Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida favqulodda holatni joriy etish shartlari va tartibini belgilashdan iborat.

#### 2-modda. Favqulodda holat to'g'risidagi qonunchilik

Favqulodda holat to'g'risidagi qonunchilik ushu Konstitutsiyaviy Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining favqulodda holat to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo'llaniladi.

#### 3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**komendantlik soati** — sutkaning maxsus berilgan ruxsatnomalarsiz va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz ko'chalarda hamda boshqa jamoat joylarida yoxud turar joydan tashqarida bo'lishga taqiq belgilangan vaqt;

**favqulodda holat** — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushu Konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlari belgilashga yo'l qo'yadigan hamda ularning zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi;

**favqulodda holat joriy etilayotgan hududlarning chegaralari (bundan buyon matnda favqulodda holat joriy etilayotgan hududlar deb yuritiladi)** — O'zbekiston Respublikasining butun hududi yoxud bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy birliklari yoxud ularning qismini qamrab oluvchi favqulodda holat rejimi amal qilishi doirasi;

**Favqulodda holat rejimini ta'minlash bo'yicha davlat komissiyasi** — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan favqulodda holat davriga tuziladigan vaqtinchalik maxsus davlat boshqaruvi organi;

**hudud komendanti** — hudud komendaturasi faoliyatiga rahbarlik qiluvchi hamda favqulodda holat rejimini ta'minlovchi kuchlar va vositalarning yagona boshqaruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs;

**hudud komendaturasi** — favqulodda holat joriy etilgan hududda favqulodda holat rejimini ta'minlovchi kuchlar va vositalarni boshqarish uchun tashkil etiladigan vaqtinchalik maxsus davlat boshqaruvi organi.

#### 4-modda. Favqulodda holatni joriy etish maqsadlari

Favqulodda holatni joriy etish maqsadlari uni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishdan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini hamda O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi va hududiy yaxlitligi himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

## **2-bob. Favqulodda holatni joriy etish hollari va tartibi**

### **5-modda. Favqulodda holatni joriy etish hollari**

Favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog'lig'iga va xavfsizligiga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga va (yoki) hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo'llamasdan bartaraf etish mumkin bo'limgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi. Bunday holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

real tashqi xavf, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini va (yoki) hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga urinishlar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, shuningdek zo'ravonlik harakatlari bilan bir vaqtida yuz beradigan, fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga va xavfsizligiga, davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning kundalik faoliyatiga bevosita tahdid soluvchi o'ta muhim hamda toifalangan obyektlarni yoki ayrim joylarni to'sish yoki bosib olish, qonunga xilof qurolli tuzilmalarni tayyorlash (tashkil etish) va ularning faoliyati, millatlararo, konfessiyalararo va chegaraviy nizolar;

keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, favqulodda ekologik vaziyatlar.

### **6-modda. Favqulodda holatni joriy etish**

Favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni darhol ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni uch sutka ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

### **7-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonida quyidagilar belgilanadi:

favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar;

favqulodda holatni joriy etish zaruratining asosi;

favqulodda holat joriy etilayotgan hududning chegaralari;

favqulodda holat rejimini ta'minlaydigan kuchlar va vositalar;

favqulodda choralar ro'yxati va ularni qo'llash chegaralari, vaqtinchalik cheklov larning qat'iy ro'yxati;

favqulodda holat sharoitlarida qo'llaniladigan favqulodda choralarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari;

favqulodda holatning amal qilish davrida tashkil etiladigan maxsus davlat boshqaruvi organlari va ularning vakolatlari;

farmon kuchga kiradigan sana va vaqt, shuningdek favqulodda holatning amal qilish muddati.

### **8-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni e'lon qilinganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi o'tkaziladigan joyga darhol, maxsus chaqiruv siz yetib kelishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash haqidagi masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkala palatasi qo'mitalarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar

fraksiyalari tomonidan dastlabki tarzda muhokama qilinmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni kelib tushgan paytdan e'tiboran 72 soatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati ushbu farmonni tasdiqlash haqidagi masalani ko'rib chiqadi hamda qo'shma qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash masalasiga doir qo'shma qarori darhol O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida tasdiqlanmagan favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran o'z kuchini yo'qotadi. Bu haqda aholi favqulodda holat joriy etilishi haqida qanday tartibda xabardor qilingan bo'lsa, xuddi shunday tartibda xabardor qilinadi.

### **9-modda. Favqulodda holatning amal qilish davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari**

Favqulodda holat joriy etilganda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat amal qilishining butun davri mobaynida o'z ishini davom ettiradi va tarqatib yuborilishi mumkin emas.

### **10-modda. Favqulodda holatning amal qilish muddati**

O'zbekiston Respublikasining butun hududida joriy etiladigan favqulodda holatning amal qilish muddati o'ttiz sutkadan, uning ayrim joylarida joriy etiladigan favqulodda holatning amal qilish muddati esa oltmisht sutkadan oshishi mumkin emas.

Agar favqulodda holatni joriy etish maqsadlariga erishilmagan bo'lsa, favqulodda holatning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan yana bir muddatga uzaytirilishi mumkin. Bu haqda aholi favqulodda holat joriy etilishi haqida qanday tartibda xabardor qilingan bo'lsa, xuddi shunday tartibda xabardor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi farmoni ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning [8-moddasida](#) nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida tasdiqlanadi.

### **11-modda. Favqulodda holatning amal qilishini tugatish**

Agar favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilsa, favqulodda holatning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan to'liq yoki qisman, shu jumladan muddatidan ilgari tugatiladi. Bu haqda aholi favqulodda holat joriy etilishi haqida qanday tartibda xabardor qilingan bo'lsa, xuddi shunday tartibda xabardor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi farmoni ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning [8-moddasida](#) nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida tasdiqlanadi.

### **3-bob. Favqulodda holat sharoitlarida qo'llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar**

### **12-modda. Favqulodda holat joriy etilganda qo'llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonida favqulodda holatning amal qilish davrida quyidagi favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar joriy etilishi nazarda tutilishi mumkin:

favqulodda holat joriy etilgan hududda davlat boshqaruvi organlarining (ular tarkibiy bo'linmalarining), mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini to'liq yoki qisman to'xtatib turish;

favqulodda holat joriy etilgan hudud bo'ylab harakatlanish erkinligiga nisbatan cheklovlar, shuningdek mazkur hududga kirish va undan chiqishning alohida rejimi, shu jumladan mazkur hududga, zarur bo'lganda esa O'zbekiston Respublikasining butun hududiga chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning kirishi hamda ushbu hududlarda turishiga nisbatan cheklovlar;

jamoat tartibini, o'ta muhim va toifalangan obyektlarni hamda aholining hayot faoliyatini va transportning harakatlanishini ta'minlovchi obyektlarni muhofaza qilishni kuchaytirish;

faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga, shu jumladan tovarlarni realizatsiya qilishga, ishlarni bajarishga va xizmatlar ko'rsatishga nisbatan cheklovlar;

oziq-ovqatni va eng zarur narsalarni sotish, sotib olish hamda taqsimlashning alohida tartibi;

yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar, shuningdek boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazilishini taqiqlash yoki cheklash;

transport vositalarining harakatini cheklash va ularni ko'zdan kechirishni amalga oshirish;

xavfli ishlab chiqarishlar hamda portlovchi, radioaktiv, shuningdek xavfli kimyoviy va biologik moddalardan foydalanadigan tashkilotlar faoliyatini to'xtatib turish;

favqulodda holatlар munosabati bilan moddiy va madaniy qimmatliklarning yo'q qilinishiga, o'g'irlanishiga yoki shikastlanishiga aniq tahdid mavjud bo'lgan taqdirda, ularni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish, ko'chmas obyektlarga, shu jumladan moddiy madaniy meros obyektlariga nisbatan esa ularni muhofaza qilishga doir tegishli choralar ko'rish.

Favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlarga qarab, mazkur moddaning [birinchi qismida](#), shuningdek ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning [13](#) va [14-moddalarida](#) nazarda tutilgan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlarining butun majmui ham, ularning ayrimlari ham joriy etilishi mumkin.

### **13-modda. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun 5-moddasining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan holatlар mavjud bo'lganda joriy etilgan favqulodda holat sharoitlarida qo'llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar**

Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun 5-moddasining [ikkinchi xatboshisida](#) ko'rsatilgan holatlар mavjud bo'lganda favqulodda holat joriy etilgan taqdirda, favqulodda holat joriy etilayotgan hududda ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning [12-moddasida](#) ko'rsatilgan favqulodda choralarga va vaqtinchalik cheklovlar qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni bilan quyidagi qo'shimcha favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

komendantlik soatini joriy etish;

hududiy mudofaa tadbirlarini amalga oshirish;

ommaviy axborot vositalari faoliyatini cheklash shartlari va tartibi ko'rsatilgan holda bunday faoliyatni cheklash, shuningdek bosma mahsulotni, radiouzatuvchi, ovoz kuchaytiruvchi vositalarni, nusxa ko'paytirish texnikasini vaqtincha olib qo'yish yoki xatlash, jurnalistlar akkreditatsiyasini o'tkazishning alohida tartibini belgilash;

favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishga monelik qilayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini to'xtatib turish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining, fuqaroligi bo'limgan shaxslarning shaxsiy ko'rigin, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar tekshiruvini, ashyolarni, uyjoyni va transport vositalarini ko'zdan kechirishni o'tkazish;

qurolni, uning o'q-dorilarini, portlovchi moddalarni, maxsus vositalarni, zaharli moddalarni realizatsiya qilishni taqiqlash, tarkibida giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalari va preparatlar, etil spiriti, alkogol mahsulotlari muomalada bo'lishining alohida rejimini belgilash. Alohida hollarda fuqarolardan qurolni va o'q-dorilarini, tashkilotlardan qurolni va uning o'q-dorilarini, maxsus vositalar va zaharli moddalarni, shuningdek jangovar va o'quv-jangovar harbiy texnikani, portlovchi va radioaktiv moddalarni vaqtincha olib qo'yish;

favqulodda holat rejimini buzayotgan va favqulodda holat joriy etilgan hududda yashamaydigan shaxslarni belgilangan tartibda ushbu hududdan tashqariga o'z hisobidan chiqarib yuborish, ularda mablag'lar mavjud bo'lgan taqdirda esa xarajatlarning o'rnini keyinchalik sud tartibida ushbu shaxslardan undirgan holda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hisobidan chiqarib yuborish.

#### **14-modda. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun 5-moddasining uchinchi xatboshisida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda joriy etilgan favqulodda holat sharoitlarida qo'llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar**

Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun 5-moddasining *uchinchi xatboshisida* ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda favqulodda holat joriy etilgan taqdirda, favqulodda holat joriy etilayotgan hududda ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning *12-moddasida* ko'rsatilgan favqulodda choralarga va vaqtinchalik cheklovlargacha qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni bilan quyidagi qo'shimcha favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

aholini xavfsiz hududlarga vaqtincha yashab turish uchun statsionar yoki ko'chma turar joylar majburiy ravishda berilgan holda evakuatsiya qilish;

karantin joriy etish, sanitariya-epidemiyaga qarshi, veterinariya tadbirlarini va boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

davlat zaxiralari jalb etish, mulkchilik shakllaridan va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, tashkilotlarning resurslarini safarbar etish, ularning ish rejimini o'zgartirish, mazkur tashkilotlarni favqulodda holat sharoitlarida zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini favqulodda holat sharoitlarida zarur bo'lgan boshqacha tarzda o'zgartirish;

avariya-qutqaruv ishlarni va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish hamda ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lgan alohida hollarda mazkur ishlarni amalga oshirish uchun mehnatga layoqatli aholini, yuridik va jismoniy shaxslarning transport vositalarini mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga majburiy ravishda rioya etgan holda jalb etish.

#### **15-modda. Saylovlar va referendumlar o'tkazishni cheklash**

O'zbekiston Respublikasining butun hududida joriy etilgan favqulodda holat amal qilishining butun muddati davomida saylovlar va referendumlar o'tkazilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining ayrim joyida joriy etilgan favqulodda holat amal qilishining butun davri mobaynida ushbu joyda joylashgan xalq deputatlari Kengashlariga saylov va fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi o'tkazilmaydi.

Favqulodda holatning amal qilish davrida davlat hokimiyatining tegishli vakillik organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdar shaxslar vakolatlarining muddati tugagan taqdirda ularning vakolatlari muddati, agar mazkur organlar va shaxslarning vakolatlari ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda belgilangan tartibda to'xtatib turilmagan bo'lsa, favqulodda holatning amal qilish davri tugaguniga qadar uzaytiriladi.

#### **16-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishini to'xtatib turish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda holat joriy etilgan hududda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar buyruqlari va qarorlarining, shuningdek mahalliy davlat hokimiyatni organlari qarorlarining amal qilishini ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoniga zid bo'lgan taqdirda, favqulodda holatning amal qilish muddatiga to'xtatib turishga haqli.

#### **4-bob. Favqulodda holatning amal qilish davrida tashkil etiladigan maxsus davlat boshqaruvi organlari**

#### **17-modda. Favqulodda holat rejimini ta'minlash bo'yicha maxsus davlat boshqaruvi organlari**

Favqulodda holatni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishga oid masalalarni darhol hal etish va tadbirlarni amalga oshirish maqsadida favqulodda holatning amal qilish davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan favqulodda holat rejimini